



Xurshid Do'stmuhammadning "Bozor" romanida Fozilbek obrazi

Davlatov Sarvar

*O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti
O'ZMPU Filologiya fakulteti O'zbek tili va adabiyoti
yo'nalishi 401-guruh talabasi*

Annotatsiya: Maqolada Xurshid Do'stmuhammadning "Bozor" romanidagi Fozilbek obrazi tahlil qilinadi hamda asarda bozor munosabatlari orqali insonning ma'naviy olami, ichki ziddiyatlari va o'zligini anglash jarayoni yoritib beriladi. Muallif romandagi obrazlar tizimi orqali zamonaviy jamiyatdagi axloqiy qadriyatlar, nafs va iymon o'rtasidagi kurash, kitobxonlik masalasi hamda ma'rifatparvarlik g'oyalarini ochib beradi. Fozilbek obrazi orqali esa ideal inson timsoli, halollik va ma'naviy poklik masalalari badiiy talqin etiladi.

Kalit so'zlar: Xurshid Do'stmuhammad, "Bozor" romani, Fozilbek obrazi, bozor munosabatlari, ma'naviy qadriyatlar, ichki kechinma, nafs va iymon, kitobxonlik, ma'rifatparvarlik, zamonaviy adabiyot.

Аннотация: В статье анализируется образ Фозилбека в романе Хуршида Дустмухаммада «Бозор», а также раскрывается духовный мир человека, его внутренние противоречия и процесс самопознания через призму рыночных отношений. Посредством системы образов автор освещает такие проблемы современного общества, как нравственные ценности, борьба между нафсом и верой, проблема чтения и идеи просветительства. Образ Фозилбека интерпретируется как воплощение идеального человека, отражающего честность и духовную чистоту.

Ключевые слова: Хуршид Дустмухаммад, роман «Бозор», образ Фозилбека, рыночные отношения, духовные ценности, внутренние переживания, нафс и вера, чтение, просветительство, современная литература.

Abstract: The article analyzes the image of Fozilbek in Khurshid Dustmuhammad's novel "Bozor" and explores the spiritual world of a person, their inner conflicts, and the process of self-awareness through the context of market relations. Through the system of characters, the author highlights issues such as moral values in modern society, the struggle between desire (nafs) and faith, the problem of reading culture, and ideas of enlightenment. The character of Fozilbek is interpreted as an embodiment of the ideal human being, reflecting honesty and spiritual purity.

Key words: Khurshid Dustmuhammad, "Bozor" novel, Fozilbek character, market relations, moral values, inner experiences, nafs and faith, reading culture, enlightenment, modern literature.

Kirish

«Bozor» romani davr va zamondoshlarimiz haqidagi mushohadalarimizni boyitish qudratiga molik bo'lgan, hayotimizda «Bozor» munosabatlarini noto'g'ri tushunish sababli paydo bo'layotgan kamchiliklarning badiiy in'ikosidan tug'ilgan asardir. Romanda voqealikni badiiy tafakkur ko'zi bilan tadqiq etish, qahramonlar taqdirida «Bozor» munosabatlari keltirilib chiqargan illat (kitob o'qimaslik)lar silsilasi, bugungi yangi davrning badiiy qiyofasi chizib berilgan. Asarda ma'rifatparvarlik g'oyasi ilgari surilgan va xalollik, iymon, to'g'ri so'zlik, mehr-oqibat kabi insoniy fazilatlar ham ta'sirli ifodalangan. Romanda bozor inson o'z qadr-qimmatini, or-nomusi va ma'naviy qadriyatlari uchun kurashadigan murakkab muhit sifatida tasvirlanadi. Bu erda har bir harakat, har bir savdo-sotiq insonning ichki dunyosini ochib beradi. Asar qahramoni Fozilbekning ongida kechayotgan jarayonlar, uning hayotga munosabati, ichki ziddiyatlari orqali yozuvchi insonning o'zligini anglash yo'lidagi izlanishlarini ko'rsatadi.

Asosiy qism

Ayniqsa Fozilbek va Qadriyalar romanchiligimizdagi yangi qahramonlardir. Ular qiyofasida bugungi davr ruhi aks etib turadi. Har bir davrning o'z qahramonlari bo'ladi. Fozilbek va Qadriyalar yozuvchining kashfiyoti emas, balki bugungi zamon talabi, zamondoshlarimizning ma'naviy ehtiyoji natijasidir. Fozilbek va Qadriya ana shunday ehtiyoj qahramonaridir. Davr qahramoni deb hisoblanayotgan Fozilbek hayoti va o'ziga xos dunyoqarashi tasviri orgali bugungi kunimizning ma'naviy ko'ramiz. Fozilbek hozirgi bozorchilarga xos xususiyatlardan butunlay mahrum emas. Jumladan o'sha odamlar kabi «Fozilbek bozordan beri, kelmaydi, olomon oqimiga qo shildi deguncha joni orom oladi. Demak, u ham o-la-di!» U o'zining hamma qatori oluvchi ekanidan tonmaydi, faqat miyig"ida kulib, aybdor odamdek o'ng'aysizlanib, «har kim didi-farosatiga yarasha oladi» deb falsafa qiladi.

Bozor va uning odamlari yozuchiga inson hayoti muammolarini badiiy tahlildan o'tkazish uchun bir vosita bo'lib xizmat qiladi. «Bozor» manzarasining ta'sirchan chiqishi uchun yozuvchi romanga «Jajman» hikoyasi mazmunini ustalik bilan singdirgan. Muallif falsafasidan ayon bolishicha «Bozorga asl odamlar kerak». Shu tariqa yozuvchi o'zining maqsadlaridan biri hozirgi zamon bozorida ish yuritadigan inson qiyofasini chizish ekanligini ayon etadi va asar markaziga Fozilbek timsolini bosh qahramon qilib qo'yadi. Uning qiyofasini chizishda muallif realistik tasvir yo'llaridan ancha chekinib, romantik bo'yoqlarga keng o'rin beradi.

Nafs o'pqnida javlon urib yashayotgan hazrati insonning "biror diyonatli topilib qolar" darajasiga kelishidagi sa'y-harakati bugun nechog'lik ko'zga ko'rinmasa, shunchalik xotirjamlikda umrguzaronlik qilaveradi. Inson ko'ksidagi nafs va iymonning to'qnashuvi bozorda sodir bo'lar ekan, insofiylarning (Haqqa ergashganlar) diyonati-yu, nojinslarning (nafsning yo'lini tutganlar) illatlarini bir taroziga o'lchamoqqa qaysi biri tosh bosarkan?!

Dastlab, bosh qahramon Fozilbekning shasiyatini tanitishni boshlagan yozuvchi, bevosita bozorga urg'u beradiki, " xayolini yo'qotgan bozor o'zini ham yo'qotadi" shaklida o'z haqiqatini qistirib o'tadi. Aslida bozor insonning umri bolgani holda voqealikda real tasvir bilan aralashtiriladi. "Buyuk muvozanat hikmati"ni anglatishga urinayotgan muallif Fozilbek, Qadimbek, Von Suu, Zar bobo obrazlari orqali

voqelikka aloqasi bo'lmagan umr-bozorini, Sabridin, Hodivoy, Xabiba Naynov zakunchilar orqali bozor-jarayonni ifodalaydi. Ushbu prototiplarda jamiyat va uning o'y-fikrlari yaqqol ko'rinadi. Munosib zamonda yashayotgan nomunosib insonlarning taqdirida ziddiyatli tuyg'ular orasidagi darbadar o'y-xayollarni shakllantiradi. Bunda baxtga erishgan yoki ostonasida turgan kimsa ham kechinmalardan benasib. Faqatgina bozorni suyardigan suymaydigan tahlil dunyosida yakka o'zi qolib ketgan Fozilbekkina umr bozoriga begona.

Ko'rinadiki, Fozilbek romanning boshidanoq «Bozor» va shu muhitdagi odamlarning asl basharasi haqida xayol suradi. «besh tanga ilinjida odamgarchilik qiyofasidan chigib...», «Bozor-odamlarning asl basharasini kunday ravshan ko'rish mumkin bolgan eng qulay joy» kabi ta'kidlovchi gaplari romanda «Bozor» muhiti va ma'naviyat muammosini asosiy dolzarb masala qilib qo'yadi. Romanning uslubi an'anaviy uslubdan ancha farq qiladi. Shuningdek, romanni tushunish uchun kitobxon davr muammolarini anglay oladigan mulohazakor, fikr-mushohadan shaxs bo'lmog'i kerak.

Ko'pchilik bozorchilarga xos tomonlari bo'lsa-da, Fozilbek ulardan keskin farqlanib turuvchi fazilatlarga, favqulodda belgilarga ega. Xuddi shu fazilatlari Fozilbekni ko'proq yozuvchi xayolidagi, idealidagi Qahramon sifatida tasavvur qilishga yo'l ochadi. Muallif hozirgi bozorlarimizda har qadamda uchraydigan odam qiyofasini chizishdan ko'ra o'z xayollarida, orzularida, yuksak mukammallik to'g'risidagi tasavvurlarida yaratilgan haqiqiy tadbirkor inson siymosini gavdalantirishga harakat qilgan. Fozilbek aksariyat bozorchilardan o'ta halolligi, fidoyiligi, qalbi beg'ubor tuygularga to'liqligi va kitobga bo'lgan cheksiz muhabbati bilan ajralib turadi. Yozuchi hozirgi bozorda bunday kishilarning topilishi qiyinligini yashi tushunadi va ularning kelajakda hayotimizda tip darajasiga kotarilishiga ishonch bildiradi. Bu ishonchini muallif rastalar orasida tentirab yuruvchi kampirning bozorga o'g'il tug'ib berishi haqidagi so'zlari orqali ta'kidlagandek tuyuladi.

Ko'rinadiki, «Bozor» romanida davrning eng muhim muammolari «ma'naviyat va ma'rifat, bugungi yoshlar tarbiyasi masalasi juda o'rinli badiiy tahlil qilingan. Yozuvchi bu masalaga shunchaki yondashmaydi balki ijtimoiy darajaga ko'tariladi. Shu bilan butun jamoatchilikning diqqatini o'ziga garatdi desak noto'g'ri bo'lmaydi. Romanda «voqeaga ijtimoiy urg'u berilib yozilganda, uning ahamiyati bir qadar oshadi. Madomiki, ijtimoiy hodisa sifatida tahlil etilayotgan voqea falsafiy mushohada etilsa, u umuminsoniy qimmatga ega bo'ladi»

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Xurshid Do'stmuhammadning «Bozor» romanida Fozilbek obrazi orqali zamonaviy jamiyatning murakkab ma'naviy-axloqiy muammolari chuqur badiiy tahlil etilgan. Yozuvchi bozor muhitini shunchaki iqtisodiy makon sifatida emas, balki insonning ichki dunyosi, e'tiqodi va hayotiy qadriyatlari sinovdan o'tadigan murakkab ijtimoiy-ruhiy maydon sifatida talqin qiladi. Fozilbek obrazi esa ana shu muhitda o'zligini yo'qotmagan, halollik, iymon va ma'naviy poklikni ustuvor bilgan ideal inson timsoli sifatida namoyon bo'ladi. Uning ichki kechinmalari, ziddiyatlari va hayotga bo'lgan munosabati orqali muallif nafs va iymon o'rtasidagi abadiy kurashni yoritadi hamda kitobxonni chuqur mushohadaga chorlaydi.

Shuningdek, romanda ilgari surilgan ma'rifatparvarlik g'oyalari, ayniqsa kitobxonlik masalasining dolzarbligi bugungi kun uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Demak, asar nafaqat badiiy qiymati, balki ijtimoiy-falsafiy mazmuni bilan ham e'tiborga molik bo'lib, Fozilbek obrazi zamonaviy adabiyotimizda yetuk va ibratli qahramonlardan biri sifatida alohida o'rin egallaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Хуршид Дустмухаммад «Роман». «Янги аср авлоди», 2021й.
2. Ahmad Otaboy. Shaxs, jamiyat va abadiyat. O'zAS 1997.
3. Do'stmuhammad X, Bozor. –T.: Sharq, 2000.